

**DAVLAT XIZMATI TUSHUNCHASI VA UNING SHAXS,
JAMIYAT HAMDA DAVLAT HAYOTIDA TUTGAN O'RNI****Yoqubov Sherzod Nabi o'g'li**

Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15695050>**Annotatsiya**

Mazkur maqolada davlat xizmati tushunchasi, uning shakllanish tarixi, huquqiy asoslari va ijtimoiy ahamiyati tahlil etiladi. Davlat xizmatining shaxs, jamiyat va davlat hayotidagi o'рни va ahamiyati yoritilgan. Tarixiy yondashuv orqali davlat xizmatining ilk davlatlar davridan boshlab qanday shakllangani ko'rsatib berilgan. Xorijiy davlatlar, jumladan, Rossiya, Qozog'iston, Belarus hamda O'zbekistondagi davlat xizmati institutlari solishtirilib, mavjud huquqiy asoslar sharhlangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasidagi davlat xizmatining turlari, ularni tartibga soluvchi qonunlar va davlat organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, davlat xizmatining shaxsiy ehtiyojlarni qondirish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va davlat funksiyalarini amalga oshirishdagi roli chuqur tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Davlat xizmati, davlat xizmatchisi, huquqiy asoslar, davlatchilik tarixi, shaxs va davlat munosabatlari, ijtimoiy ehtiyojlar, davlat organlari, fuqarolik xizmati, xalq va davlat aloqasi, xorij tajribasi.

Bugungi kunda davlat xizmati tushunchasi turli doiralarda keng qo'llanadi. Ushbu tushunchaning mazmuni yuzasidan ham bir-biridan farq qiluvchi yondashuvlar mavjud.

Davlat xizmatchisi tushunchasi davlatchilikning paydo bo'lishi va rivojlanishi bilan uzviy bog'liq hisoblanadi. Har qanday davlatchilikning payda bo'lishi va evolyutsiyasida davlat xizmatlari markaziy o'rin tutadi.

Tarixchilarning ta'kidlashicha Yer yuzida eng qadimgi davlatlar miloddan avvalgi 4-ming yillikda Ikki daryo oralig'ida (Mesopotamiya) va qadimgi Misrda paydo bo'lgan. O'zbekiston hududida esa davlatchilikning rivojlanishi uch ming yildan ziyod davrga borib taqaladi.

Dastlabki davlatlarda tashqi harbiy bosqinlardan himoyalaniş, makonlar va manzilgohlar hududini mudofaa qilish, sug'orish va dehqonchilik ishlarini tashkil etish, jamoaning ichki va tashqi aloqalarini boshqarib turish masalalarni yechish muhim va hayotiy zaruriyat edi. Davlat oldida turgan vazifalar (funksiyalar) ma'lum institutlar tomonidan amalga oshirilgan. Mazkur institutlar rivojlanishi natijasida ularning negizida bugungi kundagi davlat xizmatlari institutlari shakllangan.



Davlatchilik qanchalik barqaror bo'lsa uning davlat xizmati institutlari ham shunchalik rivoj topgan.

Shunday qilib, davlatchilikning ilk rivojlanishi bosqichlarida ham bugungi kundagi zamonaviy davlatlarda ham davlat xizmatlari davlatning mavjudligini ta'minlaydigan, uning o'ziga xosliklarini belgilaydigan, sifat ko'rsatkichlarini yuzaga chiqaradigan institut bu davlat xizmatlari hisoblanadi.

Bugungi zamonaviy davlatlarda davlat xizmati mustahkam va barqaror institutlarga aylangan bo'lib, davlat xizmatlarini qurish va tashkil etish borasida alohida qonunchilik tizimi shakllangan. Davlat xizmatiga oid munosabatlar ko'plab institutlardan tarkib topgan.

Rossiya Federatsiyasining "Rossiya Federatsiyasida davlat xizmatining asoslari to'g'risida"gi qonunida davlat xizmati – davlat organlari vakolatlarini ta'minlash bo'yicha olib boriladigan professional faoliyat sifatida, Qozog'iston Respublikasining "Qozog'iston Respublikasi davlat xizmati to'g'risida"gi qonunida davlat xizmati – davlat organlarida davlat xizmatchilarining davlat hokimiyati vazifalari va funksiyalarini amalga oshirishga qaratilgan rasmiy vakolatlarini amalga oshirishdagi faoliyati sifatida, Belarus Respublikasining "Davlat xizmati to'g'risida"gi qonunida esa davlat xizmati – davlat lavozimlarini egallab turgan fuqarolarning davlat vakolatlarini bevosita amalga oshirish va davlat organlari yoki mansabdor shaxslari funksiyalarini bajarishini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladigan kasbiy faoliyati sifatida ta'riflangan.

Demak, yuqoridagilardan anglashiladiki, davlat xizmati:

- davlatning vakolatlari, vazifa va funksiyalarini amalga oshirishga qaratiladi;
- maxsus vakolatli davlat xizmatchilari tomonidan haq evaziga, mehnatga oid munosabatlar doirasida amalga oshiriladi;
- doimiy amalga oshiriladigan professional xizmat (faoliyat) hisoblanadi;
- o'zining barqaror institutsional asoslari mavjud bo'ladi.

Barcha davlatlarda davlat xizmati ma'lum tizimga ega bo'ladi. Masalan, Fransiyada davlat xizmati va mahalliy davlat xizmati bir-biridan ajratilgan, Rossiya Federatsiyasida davlat xizmati tizimini davlat fuqarolik xizmati, harbiy xizmat va huquqni muhofaza qilish organlarida amalga oshiriladigan xizmat tashkil etadi. Belarus Respublikasida esa davlat xizmati tizimini davlat fuqarolik xizmati, harbiy xizmat va harbiylashtirilgan xizmatlardan iborat.

O'zbekiston Respublikasida davlat xizmatiga oid yagona qonun mavjud emasligi sababli davlat xizmati tizimini turli qonunchilik hujjatlari tahlili asosida aniqlash mumkin. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustda



qabul qilingan “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi qonunining 4-moddasida davlat fuqarolik xizmati davlat xizmatining bir turi, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining davlat fuqarolik xizmati lavozimlaridagi davlat organlari vakolatlari amalga oshirilishini ta‘minlashga doir haq to‘lanadigan kasbiy faoliyat sifatida ta‘riflangan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrda “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi qonunining 4-moddasida esa harbiy xizmat – O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining Qurolli Kuchlar safida umumiy harbiy majburiyatni bajarish borasidagi davlat xizmatining alohida turi” sifatida ta‘riflangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktyabrda “O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5843-son Farmonining 1-bandida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlaridagi harbiy xizmat va huquqni muhofaza qiluvchi organlardagi xizmat davlatning maxsus xizmati hisoblanishi va alohida qonun hujjatlari bilan tartibga solinishi nazarda tutilgan.

Davlat xizmati orqali:

birinchidan, davlatning vakolat, funksiya va vazifalari amalga oshiriladi;

ikkinchidan, davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas‘ulligini ta‘minlanadi;

uchinchidan, fuqarolarning davlat organlari orqali ta‘minlanadigan turli ehtiyojlari ta‘minlanadi;

to‘rtinchidan, xalq va davlat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar amalga oshiriladi.

Shunday qilib, bugungi kunda davlat xizmati tushunchasining mazmuni quyidagilarni anglatadi:

birinchidan, huquq tarmog‘i;

ikkinchidan, qonunchilik sohasi;

uchinchidan, huquqiy fan;

to‘rtinchidan, ilmiy tadqiqot sohasi.

Davlat xizmatining mohiyati uning shaxs, jamiyat va davlat hayotida qanchalik muhim o‘rin tutishiga bog‘liq hisoblanadi:

Davlat xizmatining shaxs uchun ahamiyati shaxsning turli ehtiyojlarining ta‘minlanishida o‘z ifodasini topadi.

Ma‘lumki, inson ijtimoiy mavjudot hisoblanadi. Shu sababli har bir inson hayoti davomida turli ijtimoiy ehtiyojlar qurshovida yashaydi va ana shu ijtimoiy ehtiyojlarning qondirilishi shaxs uchun muhim ahamiyatga ega.



Insonning ijtimoiy ehtiyojlari qondirilishida davlat fuqarolik xizmati muhim o'rin tutadi. Xususan, ta'lim, tibbiyot, turli ijtimoiy xizmatlarning taqdim etilishi aynan davlat fuqarolik xizmatlari orqali amalga oshiriladi.

Shu bilan birga shaxsning huquqlarini himoya qilish, uning buzilgan huquqlarini tiklash ham aynan tegishli davlat xizmatlari orqali ta'minlanadi.

Davlat xizmatining jamiyat uchun ahamiyati jamiyatda ijtimoiy birlik va barqarorlikni ta'minlash, jamiyatni parvarishlash, shuningdek jamiyatga ijtimoiy ne'matlarni taqdim etishda namoyon bo'ladi.

Davlat xizmatining davlat uchun ahamiyati davlatning vazifalari bajarilishi hamda funksiyalari amalga oshirilishidadir.

Davlatning, qonun chiqarish, iqtisodiyot, mudofaa va xavfsizlik, huquq-tartibot, moliyaviy, ijtimoiy himoya, qishloq va suv xo'jaliklari, qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi, transport, energetika, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, sport, madaniyat, yoshlar va shu kabi boshqa masalalar bo'yicha muhim funksiyalari aynan davlat xizmati orqali amalga oshiriladi.

